

## **TALABA-YOSHLAR O'RTASIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8436648>

**Xidirova Umida Erkin qizi**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti*

*Ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi  
umidaxidirova85@gmail.com tel:(+99894)4887801*

### **Annotatsiya**

*Maqolada yoshlar ma’naviyati va ruhiyatiga ta’sir ko’rsatadigan salbiy omillar, tahdidlar ko’rinishlari, internet va axborotdan foydalanish madaniyati, shuningdek talaba-yoshlar o’rtasida axborot madaniyatining shakllanganlik darajalari yoritib o’tilgan.*

### **Kalit so’zlar**

*Yoshlar, internet, tahdid, “ommaviy madaniyat”, ijtimoiy tarmoq, axborot, axborot madaniyati, ijtimoiy hayot, mediamadaniyat*

### **Abstract**

*The article highlights the negative factors that affect the morale and spirit of young people, threats, the culture of using the Internet and information, as well as the levels of formation of information culture among students and young people.*

### **Key words**

*Youth, internet, threat, "mass culture", social network, information, information culture, social life, media culture*

Axborotlashtirish ta’sirida insonlar hayoti va kasbiy faoliyatining barcha jabhalarida: iqtisodiyot, fan, ta’lim, transport, texnika, maishiy sohada tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu o‘zgarishlar shu qadar keng ko‘lamliki, ularning jamiyat hayotiga ta’siri shunchalik kattaki, nazariy jihatdan yangi axborot muhiti – avtomatlashtirilgan infosfera bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda mustaqillik yillarida axborot bilan ishlash tizimida muhim ishlar amalga oshirildi. Ya’ni bu borada olib borilgan samarali izlanishlar axborot kommunikatsiya sohasida muvaffaqiyatlar mezoniga aylandi. Bu esa ta’lim tizimida axborot tizimi bilan ishlashga imkoniyatlar eshigini yanada kengroq ochib bera oldi. Jamiyatda hosil bo’layotgan axborot bo’ronidan jamiyat a’zolarini,

ayniqsa, jamiyatning kelajagi bo'lgan yoshlarni himoya qilishda, ularda axborot madaniyatini shakllantirish o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

"Axborot madaniyati" tushunchasi ikkita fundamental tushuncha: axborot va madaniyat tushunchalariga asoslanadi. Bundan kelib chiqib, bu tushunchani talqin qilishning "madaniyat" va "axborot" yondashuvlariga ajratib qarashlar mavjud. Madaniyat yondashuvi doirasida axborot madaniyatini axborotlashgan jamiyatda insonning yashash faoliyati usuli sifatida, insoniyat madaniyati shakllanishi jarayonining tashkil etuvchisi sifatida qaraladi. Axborot yondashuvi doirasida esa unga axborot talabini qondirishga qaratilgan barcha axborot faoliyati bilimlari majmuasi sifatida qaraladi.

So'nggi vaqtarda esa axborot madaniyati tushunchasini shaxsning axborot va madaniyat komponentlarining integratsiyalashuvi vaziyatida yaxlit qarash tendentsiyasi kuchaymoqda. Buning natijasida esa axborot madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirrasi sifatida qaralmoqda. Aynan ana shu qarash axborot madaniyatining asl mohiyatini ochib berishga imkon beradi.

Axborot madaniyati shaxsning o'quv, ilmiy-bilish, mustaqil ta'lif olish, dam olish va boshqa ko'rinishli faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan, shaxsiy axborot faoliyatini samarali tashkil qilishni ta'minlaydigan bilimlar, malaka va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan majmuasidir. Umuman olganda, axborot madaniyati axborotdan samarali foydalanish bilim va ko'nikmalari bo'lib, kerakli axborotni axborot resurslaridan axborot texnologiyalarining barcha ko'rinishlari (kompyuter va Internet tarmog'i texnologiyalari) orqali qidirishning turli xil bilimlaridan iborat

OTM talabasining axborot madaniyati - bu umumiy va kasbiy madaniyatning bir qismi bo'lib, u axborot dunyoqarashiga ega bo'lgan, shuningdek, axloqiy va huquqiy me'yorlarga muvofiq rivojlangan axborot vakolatlari darajasida axborot faoliyatini amalga oshiradigan shaxsning integratsion sifatidir. Albatta, talabalarda axborot madaniyatini talab darajasida shakllantirish uchun mediasavodxonlik va axborot texnologiyalarini o'qitish jarayonini oliy ta'lif muassasasida o'qishga tayyorgarlik bosqichida ham, bevosita jarayon davomida ham tashkil etish zarur. OTMdA talabalarning axborot madaniyatini shakllantirish jamiyatining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan talabalarni moslashtirishning muhim tarkibiy qismidir. Ammo shuni ta'kidlash joizki, oliy ta'lif muassasalarida keng tarqalgan an'anaviy o'qitish usullari har doim ham o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali bajara olmaydi. Bundan tashqari, o'quv jarayoni ko'pincha kelajakdag'i kasbiy faoliyatning o'ziga xos yo'nalishidan ajratilgan holda sodir bo'ladi. Shunday qilib, oliy o'quv yurtlari uchun axborot

texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayoni samaradorligini oshiradigan uslub va texnologiyalarni ishlab chiqish masalasi paydo bo'ladi.

Axborot madaniyati tushunchasi dastlab kutubxonachilik sohasida paydo bo'lib, asta-sekin o'zining rivojlanishi bilan kibernetika, informatika, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik, tilshunoslik va boshqa fanlardan bir qator bilimlarni o'z ichiga ola boshladi.

Talabalarning axborot madaniyatining mohiyatini tahlil qilish uning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon berdi, jumladan:

- 1. Axborot ehtiyojlarini (axborot so'rovlarini) aniq va malakali shakllantirish qobiliyati.
- 2. Axborot resurslarini bilish.
- 3. Elektron kutubxonanining imkoniyatlarini bilish va uning resurslari va imkoniyatlaridan foydalana bilish.
- 4. Axborotni qayta ishlash. Nafaqat axborot manbalaridan ma'lumot olish, balki o'z faoliyati natijalarini to'g'ri shakllantirish va toplash qobiliyati.
- 5. Tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish. Qidiruvlar natijasida olingan ma'lumotlarni tanqidiy baholash, eng muhimini tanlash va undan oqilona foydalanish qobiliyati.

Jamiyatda axborotning qimmati ortib, u sanoat jamiyatidan axborotlashgan jamiyatga aylanib bormoqda. Hozirgi hayotning o'ta o'zgaruvchanligi axborotlashgan jamiyatda bir qator yangi atributlarni yuzaga keltiradi: Axborot va bilim jamiyatning asosiy o'zgartiruvchi kuchiga aylanadi; Ishlab chiqaruvchi va ijtimoiy texnologiyalarning yangilanish sikli 6-8 yilni tashkil etib, avlodlar almashinishi suratidan o'zib ketadi; uzluksiz ta'lim va yangi ixtisoslik olishga qobiliyat shaxsning ijtimoiy statusini saqlab qolishning ajralmas qismiga aylanadi; har bir insonning taqdiri yangi axborotni o'z vaqtida topish, olish, bir qiymatli qabul qilish va samarali foydalanish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Talabalarda axborot bilan ishlash tizimini tashkil qilish muhim va zarurligi keltirilgan fikrlarda bayon qilindi. Uning samarador omillari talabalarning shaxsiy qobiliyatida kuzatish mumkinligi ta'kidlandi. Talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini to'g'ri tashkil qilinishi uning takomillashishi va samaradorlikka erishishiga sabab bo'ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. "Xalq so'zi", 2018 yil 28-iyun

2. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari.

O'quv amaliy qo'llanma.-T.:Extremum-press, 2017 yil

3.X.D.Xolmirzayev, X.A.Axmedov v - Media savodxonlik va axborot madaniyati. O'quv uslubiy majmua.-TDPU, 2022 yil